




TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**O'RTA MAXSUS TA'LIM TASHKILOTI
PEDAGOGI**



“O’rta maxsus ta’lim tashkiloti pedagogi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

O'рта maxsus ta'lim tashkiloti pedagogi

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0010



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Ushbu Kasbiy standart o'рта maxsus ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda – akademik litseylar) pedagoglari kasblari bo'yicha kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, akademik litseylarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

andragogika – kattalarni o'qitish usullari va texnologiyalarini o'rganish va asoslash bilan shug'ullanadigan fan;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat ta'lim standarti – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

davlat ta'lim tashkiloti – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan tashkilot;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi

tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kompleks davlat akkreditatsiyasi – o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalariga asoslangan jarayon;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

maxsus davlat akkreditatsiyasi – o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pedagog – (yunon tilidan – παιδαγωγός bola yetaklovchi) – pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs;

pedagogik faoliyat – ta'lim berish, tarbiyalash, baholash va rivojlantirishga qaratilgan professional faoliyat;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

tarbiyaviy ish – o‘quvchilar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy moslashuvga yo‘naltirilgan faoliyat;

ta‘lim – ta‘lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta‘lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta‘lim dasturi – tegishli kasblar, ta‘lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar bo‘yicha davlat ta‘lim standartlari (talablari) va kasbiy standartlarga muvofiq kompetensiya va o‘quv natijalari, ta‘lim mazmuni, hajmi va baholash talablarini belgilovchi o‘quv-me‘yoriy hujjat;

ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta‘lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta‘lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

o‘quv dasturi – o‘rta maxsus ta‘limning o‘quv rejasiga kiritilgan fanlarning mazmuni, uning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan hujjat;

o‘quv fani – ta‘lim muassasalarida o‘rganish uchun fan, texnika, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar tizimi;

o‘quv jarayoni jadvali – ta‘lim jarayonining ketma-ketligi va almashuvchanligini, attestatsiya va ta‘til vaqtlarini belgilovchi hujjat;

o‘quv reja – o‘rta maxsus ta‘limning muayyan ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslari hamda ularni o‘rganish izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

xalqaro akkreditatsiya – akkreditatsiya tashkilotlari reyestriga kiritilgan xalqaro ta‘lim sifatini ta‘minlash tarmoqlarining to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta‘lim dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida” gi 637-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi 901-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ – 345-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-son qarori (IFUT-2.1);

O‘zbekiston Milliy Standarti O‘zMSt 641:2025. Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025);

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-dekabrda (ro'yxat raqami 3119, 2019-yil 11-yanvar)da Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining kasb-hunar ta'limi markazi, O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Akademik litsey va texnikumlar boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 78-q/q, 13/qq, 32-q/q, 162-son qarori;

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-oktabrda (ro'yxat raqami 3572, 2024-yil 12-noyabr)da Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi "O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida pedagog xodimlar ish faoliyatining vaqt me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida" 28-son, 18-q/q-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 30-avgustda "O'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" 327-son buyrug'i.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

AKT – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	O'rta maxsus ta'lim tashkiloti pedagogi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Akademik litseylarda o'rta maxsus ta'lim dasturlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori kasbiy va metodik saviyada tashkil etish, o'quvchilarning intellektual salohiyati, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularni oliy ta'limga va kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q seksiya Ta'lim 85 Ta'lim 85.3 O'rta va o'rta ta'limdan keyingi ta'lim 85.33 O'rta ta'limdan keyingi ta'lim 85.33.0 O'rta ta'limdan keyingi ta'lim	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Mazkur kasbiy standart akademik litsey pedagoglarining kasbiy faoliyatini samari tashkil etish, ularning mehnat vazifalari, kasbiy kompetensiyalari, bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan tablarni belgilaydi. Standart ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		23203 Oliy ma'lumotli o'qituvchi	6
		23203 Katta o'qituvchi	6
		23203 Yetakchi o'qituvchi	6
		23203 Bosh o'qituvchi	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	23203 Oliy ma'lumotli o'qituvchi	A1.6	O'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, o'tkazish va tashkil etish	A1.01.6	O'quv fanining o'quv reja va dasturlarini davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqish
				A1.02.6	Dars mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rejalashtirish
				A1.03.6	O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish
		A2.6	O'quv mashg'ulotlari natijalarini baholash va monitoring qilish	A2.01.6	Joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarini ishlab chiqish va qo'llash
				A2.02.6	O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini tahlil qilish
				A2.03.6	Baholash natijalariga asosan o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish
2.	23203 Katta o'qituvchi	B1.6	O'quv mashg'ulotlarini yuqori darajada o'tkazish va metodik jihatdan takomillashtirish	B1.01.6	Fan bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish
				B1.02.6	O'quv-uslubiy materiallar va didaktik vositalarni ishlab chiqish
				B1.03.6	O'qituvchilarga metodik maslahat va amaliy yordam ko'rsatish
		B2.6	O'quvchilarning ta'limiy va kasbiy rivojlanishini dars jarayoni orqali qo'llab- quvvatlash	B2.01.6	Iqtidorli va o'zlashtirishi sust o'quvchilar bilan individual ishlash
				B2.02.6	Fan to'garaklari va qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etish
				B2.03.6	O'quvchilarni mustaqil ta'lim faoliyatiga yo'naltirish
3.	23203 Yetakchi o'qituvchi	D1.6	Innovatsion o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish	D1.01.6	Raqamli ta'lim resurslari va innovatsion metodlarni dars jarayoniga integratsiya qilish
				D1.02.6	Ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion va pilot dars mashg'ulotlarini amalga oshirish
				D1.03.6	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ochiq va namunaviy darslar o'tkazish

		D2.6	Pedagogik jamoada dars o'tish sifati va kasbiy salohiyatni rivojlantirish	D2.01.6	Yosh va yangi ish boshlagan o'qituvchilarga dars o'tish bo'yicha mentorlik qilish
				D2.02.6	Dars o'tish metodikasi bo'yicha seminar va treninglarni tashkil etish
				D2.03.6	Ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etish
4.	23203 Bosh o'qituvchi	E1.6	O'quv mashg'ulotlarini strategik darajada tashkil etish va namunaviy darslar o'tkazish	E1.01.6	Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan namunaviy va mualliflik darslarini ishlab chiqish va o'tkazish
				E1.02.6	O'quv mashg'ulotlari sifati ustidan monitoring va metodik nazoratni amalga oshirish
				E1.03.6	Ta'lim muassasasi rahbariyati bilan hamkorlikda dars jarayonini takomillashtirish bo'yicha qarorlar ishlab chiqish
		E2.6	Ilmiy-metodik, ekspertlik va dars jarayonini rivojlantirish faoliyatini amalga oshirish	E2.01.6	O'quv dasturlari va dars mashg'ulotlarini ekspertizadan o'tkazish
				E2.02.6	Ilmiy-uslubiy tadqiqotlar asosida dars o'tish metodikasini takomillashtirish
				E2.03.6	Respublika va hududiy darajadagi ta'lim loyihalarida namunaviy darslar va ekspertlik faoliyatini amalga oshirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Oliy ma'lumotli o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23203	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash markazida talab etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Dars beradigan o'quv fanlariga mos pedagogik oliy ma'lumot	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi; o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rish;</p> <p>ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, ohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi; o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>ta'lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta'lim hujjatlariga, ichki mehnat tartibi tablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;</p> <p>majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Akademik litsey pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotli o'qituvchi
	6	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mutaxassis o'qituvchi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.6- O'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, o'tkazish va tashkil etish	A1.01.6- O'quv fanining o'quv reja va dasturlarini davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini tahlil qilish
		2. Fan bo'yicha o'quv reja va mavzular ketma-ketligini shakllantirish
		3. O'quv dasturini tasdiqlash uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash
		O'quv mazmunini mantiqiy tizimlashtirish
		O'quv yuklamasini ta'lim natijalariga mos ravishda rejalashtirish
		Bilimlar:
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari
	Fan mazmunini tuzishning didaktik asoslari	
	O'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish metodikasi	
	A1.02.6- Dars mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rejalashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Darsning maqsad va kutilayotgan natijalarini belgilash
		2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tanlash va darsga integratsiya qilish
		3. Dars ishlanmasini (konspekt, slayd, topshiriqlar) tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Pedagogik texnologiyalarni dars mazmuniga mos tanlash
		Interaktiv va innovatsion dars shakllarini qo'llash
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Zamonaviy pedagogik va innovatsion ta'lim texnologiyalari
		Darsni loyihalash va rejalashtirish tamoyillari
	Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish asoslari	
	A1.03.6- O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish	Mehnat harakatlari:
		1. O'quvchilarning bilim darajasi va psixologik xususiyatlarini aniqlash
2. Dars jarayonida individual va differensial yondashuvni qo'llash		
3. O'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini rag'batlantirish		
Ko'nikmalar:		
Individual va guruhli ishlash metodlarini qo'llash		
O'quvchilarning ta'lim ehtiyojlarini aniqlash		
Ta'lim jarayonida motivatsiyani shakllantirish		

		Bilimlar:
		Yosh pedagogikasi va psixologiyasi asoslari
		Differensial va individual ta'lim metodlari
		O'quvchilarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Belgilangan o'quv reja va dasturlar asosida o'quv mashg'ulotlarini mustaqil rejalashtirish va o'tkazish uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
		2. Dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik metodlar, texnologiyalar va o'quv vositalarini mustaqil tanlash va asoslash, ta'lim natijalari uchun javobgarlik
		3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirish, dars intizomi va ta'lim sifati bo'yicha javobgarlikni ta'minlash
		4. Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish
A2.6- O'quv mashg'ulotlari natijalarini baholash va monitoring qilish	A2.01.6- Joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarini ishlab chiqish va qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Fan bo'yicha baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilash
		2. Test, yozma va amaliy nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish
		3. Nazorat tadbirlarini belgilangan tartibda o'tkazish va natijalarni rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar
		Baholash vositalarini ta'lim natijalariga moslashtirish
		Turli baholash shakllarini (test, amaliy, loyiha) qo'llash
		Baholash jarayonida xolislik va shaffoflikni ta'minlash
		Bilimlar:
	Ta'lim natijalarini baholashning zamonaviy yondashuvlari	
	Joriy, oraliq va yakuniy nazoratni tashkil etish talablari	
	Baholash mezonlari va reyting tizimlari	
	A2.02.6- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini tahlil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Baholash natijalari asosida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash
		2. O'quvchilar kesimida bilim va ko'nikmalarni solishtirma tahlil qilish
		3. Tahlil natijalari bo'yicha xulosalar va takliflar tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Ta'lim natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish
		Statistik va diagnostik ma'lumotlardan foydalanish
O'quvchilarning kompetensiyalarini baholash		
Bilimlar:		
Ta'limda monitoring va tahlil usullari		
Kompetensiyaga asoslangan baholash yondashuvi		
Pedagogik diagnostika asoslari		

	A2.03.6- Baholash natijalariga asosan o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish	Mehnat harakatlari:
		1. Baholash va monitoring natijalariga ko'ra muammoli mavzularni aniqlash
		2. O'quv reja va dars ishlanmalariga tuzatishlar kiritish
		3. Qo'shimcha mashg'ulotlar va individual ishlash shakllarini belgilash
		Ko'nikmalar:
		Ta'lim jarayonini moslashtirish va takomillashtirish
		Individual va differensial yondashuvni qo'llash
		Ta'lim sifati bo'yicha qarorlar qabul qilish
		Bilimlar:
		Ta'lim sifatini boshqarish tamoyillari
	Ta'lim jarayonini takomillashtirish metodlari	
	O'quvchilarning o'zlashtirishini oshirish bo'yicha pedagogik yondashuvlar	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash jarayonini belgilangan me'yorlar va baholash mezonlari asosida mustaqil tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ullik
		2. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalarining xolisligi, shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik
3. Baholash va monitoring natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish va rasmiylashtirishni mustaqil amalga oshirish, xulosalar uchun javobgarlik		
4. Aniqlangan kamchiliklar asosida o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish bo'yicha mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish		
Texnik va/yoki texnologik talab	Shaxsiy kompyuter yoki noutbuk (zamonaviy operatsion tizim va ofis dasturlari bilan ta'minlangan) Multimediali proyektor yoki interaktiv doska Printer, skaner va nusxa ko'chirish qurilmalari Elektron ta'lim platformalari Elektron jurnal va kundalik tizimlari. Test va baholash uchun elektron dasturlar va onlayn platformalar	

Kasbning nomi:	Katta o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23203	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:		
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:		
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;</p> <p>ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, ohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;</p> <p>o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>ta'lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi tablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;</p> <p>majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Akademik litsey pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotli o'qituvchi
	6	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mutaxassis o'qituvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Fan bo'yicha milliy va xalqaro ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va tahlil qilish	

B1.6- O'quv mashg'ulotlarini yuqori darajada o'tkazish va metodik jihatdan takomillashtirish	B1.01.6- Fan bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish	2. Ilg'or tajribalarni o'quv mashg'ulotlariga moslashtirib joriy etish
		3. Joriy etilgan pedagogik innovatsiyalar samaradorligini monitoring qilish va umumlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Ilg'or pedagogik yondashuvlarni amaliyotga moslashtirish
		Innovatsion metodlarni fan mazmuniga integratsiya qilish
		Ta'lim natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish
		Bilimlar:
		Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar
		Fan bo'yicha milliy va xorijiy ilg'or ta'lim tajribalari
		Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish usullari
	B1.02.6- O'quv-uslubiy materiallar va didaktik vositalarni ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Fan bo'yicha o'quv dasturi va malaka talablariga mos o'quv-uslubiy materiallar ishlab chiqish
		2. Didaktik vositalar (taqdimotlar, topshiriqlar, baholash materiallari)ni tayyorlash
		3. Ishlab chiqilgan materiallarni sinovdan o'tkazish va takomillashtirish
		Ko'nikmalar:
		O'quv-uslubiy hujjatlarni loyihalash va tizimlashtirish
		Didaktik materiallarni raqamli va an'anaviy shaklda ishlab chiqish
		O'quv materiallarini ta'lim oluvchilar ehtiyojiga moslashtirish
		Bilimlar:
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari
	Didaktika va metodika asoslari	
	Raqamli ta'lim resurslari va ularni qo'llash texnologiyalari	
	B1.03.6- O'qituvchilarga metodik maslahat va amaliy yordam ko'rsatish	Mehnat harakatlari:
		1. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatini tahlil qilish va ehtiyojlarini aniqlash
		2. Metodik maslahatlar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish
		3. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish va qo'llab-quvvatlash
		Ko'nikmalar:
Metodik maslahat berish va murabbiylik qilish		
Pedagogik muammolarni aniqlash va yechim taklif etish		
Kasbiy muloqot va jamoa bilan ishlash		
Bilimlar:		
Pedagogik mahorat va yetakchilik asoslari		
Kattalar ta'limi (andragogika) tamoyillari		
O'qituvchilarning kasbiy rivojlanish modellari		

	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. O'quv mashg'ulotlarini dars reja va dasturlari, davlat ta'lim standartlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mustaqil rejalashtirish va o'tkazish uchun shaxsiy javobgarlik</p> <p>2. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik qarorlarni qabul qilish va mashg'ulotlarni metodik jihatdan takomillashtirish bo'yicha mas'ullik</p> <p>3. O'quv mashg'ulotlarining samaradorligi va sifatini monitoring qilish, tahlil qilish va zarur hollarda o'z faoliyatini takomillashtirish uchun mustaqil javobgarlik</p> <p>4. Dars jarayonida innovatsion metodlar va ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish bo'yicha qarorlar qabul qilish va natijalarini baholash</p>
<p>B2.6- O'quvchilarning ta'limiy va kasbiy rivojlanishini dars jarayoni orqali qo'llab-quvvatlash</p>	<p>B2.01.6- Iqtidorli va o'zlashtirishi sust o'quvchilar bilan individual ishlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. O'quvchilarning bilim darajasi va o'zlashtirish xususiyatlarini diagnostika qilish</p> <p>2. Iqtidorli va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun individual ta'lim rejalarini ishlab chiqish</p> <p>3. Individual mashg'ulotlar natijalarini monitoring qilish va tuzatishlar kiritish</p> <p>Ko'nikmalar</p> <p>O'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va hisobga olish</p> <p>Differensial va individual yondashuvlarni qo'llash</p> <p>Motivatsiyani oshirish va pedagogik qo'llab-quvvatlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Differensial va individual ta'lim metodikasi</p> <p>Iqtidorli va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash usullari</p> <p>Ta'lim psixologiyasi va yosh xususiyatlari</p>
	<p>B2.02.6- Fan to'garaklari va qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Fan to'garaklari va qo'shimcha mashg'ulotlar uchun reja va dasturlarni ishlab chiqish</p> <p>2. Mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish, ishtirokchilarni jalb qilish</p> <p>3. To'garak va qo'shimcha mashg'ulotlar samaradorligini baholash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Ta'limdan tashqari mashg'ulotlarni loyihalash va tashkil etish</p> <p>O'quvchilarni fan bo'yicha qiziqtirish va rag'batlantirish</p> <p>Jamoa bilan ishlash va tashkiliy faoliyatni yuritish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Fan to'garaklari faoliyatini tashkil etish metodikasi</p> <p>Ta'limdan tashqari faoliyatni rejalashtirish tamoyillari</p>

		O'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini rivojlantirish usullari		
B2.03.6- O'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini yo'naltirish		Mehnat harakatlari:		
		1. O'quvchilarga mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish va taqdim etish		
		2. Mustaqil ta'lim jarayonini kuzatish va maslahatlar berish		
		3. Mustaqil ta'lim natijalarini baholash va tahlil qilish		
		Ko'nikmalar:		
		Mustaqil ta'lim faoliyatini rejalashtirish va yo'naltirish		
		O'quvchilarda o'z-o'zini o'rganish kompetensiyalarini shakllantirish		
		Axborot manbalari bilan ishlashga yo'naltirish		
		Bilimlar:		
		Mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish nazariyalari		
		Raqamli va an'anaviy ta'lim resurslari		
		Ta'lim natijalarini baholash mezonlari		
		Mas'uliyat va mustaqillik:		1. O'quvchilarning ilmiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan dars jarayonini mustaqil rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish, natijalari uchun shaxsiy javobgarlik
				2. Dars jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va kasbiy yo'nalishlarini aniqlash hamda rivojlantirish bo'yicha pedagogik qarorlarni mustaqil qabul qilish
3. Ta'lim mazmunini mehnat bozori talablari va kasbiy rivojlanish istiqbollari bilan uyg'unlashtirish uchun javobgarlik				
4. O'quvchilarning kasbiy yo'naltirilishi va shaxsiy rivojlanishiga oid faoliyatni boshqa o'qituvchilar, psixologlar va ota-onalar bilan hamkorlikda muvofiqlashtirish, biroq o'z faoliyati natijalari uchun mustaqil javobgarlik				
Texnik va/yoki texnologik talab		Zamonaviy shaxsiy kompyuter yoki noutbuk (Windows/macOS/Linux, ofis dasturlari bilan); Multimediali proyektor yoki interaktiv doska; Audio va video jihozlar (mikrofon, kamera, kolonkalar) ta'lim jarayonini sifatli olib borish uchun; Printer, skaner va nusxa ko'chirish qurilmalari; Barqaror va yuqori tezlikdagi internet aloqasi; Elektron ta'lim platformalari (LMS – Learning Management System, masofaviy ta'lim tizimlari); Elektron baholash va test tizimlari; Onlayn prezentatsiya va interaktiv kontent yaratish dasturlari.		

Kasbning nomi:	Yetakchi o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23203	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:		
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:		
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;</p> <p>ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, ohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;</p> <p>o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>ta'lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi tablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;</p> <p>majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Akademik litsey pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotli o'qituvchi
	6	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mutaxassis o'qituvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Raqamli ta'lim resurslarini va innovatsion pedagogik metodlarni dars mavzulariga moslashtirish	

D1.6- Innovatsion o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish	D1.01.6- Raqamli ta'lim resurslari va innovatsion metodlarni dars jarayoniga integratsiya qilish	2. Dars jarayonida innovatsion metodlarni va elektron resurslarni qo'llash
		3. Joriy etilgan resurs va metodlarning samaradorligini monitoring qilish va natijalarni tahlil qilish
		Ko'nikmalar:
		Raqamli va interaktiv ta'lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish
		Innovatsion metodlarni darsga integratsiya qilish va adaptatsiya qilish
		Ta'lim jarayonining samaradorligini baholash
		Bilimlar:
		Raqamli ta'lim platformalari va elektron o'quv materiallari
		Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning amaliyotga tatbiqi
		Ta'lim samaradorligini baholash mezonlari va monitoring usullari
	D1.02.6- Ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion va pilot dars mashg'ulotlarini amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Pilot dars mashg'ulotlarini rejalashtirish va tashkil etish
		2. Innovatsion metodlar yordamida darsning samaradorligini oshirish
		3. Dars jarayonini kuzatish va natijalar bo'yicha xulosalar chiqarish
		Ko'nikmalar:
		Innovatsion yondashuvlar va eksperimental metodlarni tatbiq etish
		Ta'lim jarayonini samarali monitoring qilish
		Pedagogik tajribani tahlil qilish va yaxshilash choralari belgilash
		Bilimlar:
		Pedagogik tajriba va innovatsion metodologiyalari
	Ta'lim samaradorligini baholash metodlari	
Darsni rejalashtirish va pilot loyihalarini amalga oshirish tamoyillari		
D1.03.6- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ochiq va namunaviy darslar o'tkazish	Mehnat harakatlari:	
	1. Ochiq va namunaviy darslarni pedagogik texnologiyalar asosida rejalashtirish	
	2. Dars mashg'ulotlarini o'quvchilar va hamkasblar uchun namuna sifatida o'tkazish	
	3. Mashg'ulotdan keyingi tahlil va baholash orqali metodik tavsiyalar ishlab chiqish	
	Ko'nikmalar:	
	Ochiq dars va master-klasslarni tashkil etish	
	Zamonaviy pedagogik metodlarni amaliyotga tatbiq etish	
O'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirish va dars sifatini oshirish		

		Bilimlar:	
		Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va dars metodikasi	
		Ochiq darslar va namunaviy mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari	
		Pedagogik tahlil va baholash usullari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Innovatsion dars mashg'ulotlarini mustaqil rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish	
		2. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni tanlash va qo'llash bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish	
		3. Pilot va ochiq darslar orqali metodik tajribani amaliyotga tatbiq etishda mustaqil faoliyat yuritish	
D2.6- Pedagogik jamoada dars o'tish sifati va kasbiy salohiyatni rivojlantirish	D2.01.6- Yosh va yangi ish boshlagan o'qituvchilarga dars o'tish bo'yicha mentorlik qilish	Mehnat harakatlari:	
		1. Yangi ish boshlagan o'qituvchilarni dars rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha yo'naltirish	
		2. Mentorlash jarayonida dars mashg'ulotlarini kuzatish va baholash	
		3. Yangi o'qituvchilarga pedagogik maslahat va amaliy tavsiyalar berish	
		Ko'nikmalar	
		Mentorlik va pedagogik maslahat berish	
		Dars mashg'ulotlarini baholash va metodik tahlil qilish	
		Yangi o'qituvchilarni pedagogik rivojlantirishga yo'naltirish	
			Bilimlar:
			Ta'lim jarayonini tashkil etish va rejalashtirish tamoyillari
			Pedagogik nazorat va baholash usullari
			Mentorlik va o'qituvchilarni rivojlantirish metodologiyasi
			Mehnat harakatlari:
			1. Pedagogik seminar va trening mavzularini rejalashtirish
			2. Seminar va treninglarni tashkil etish va o'tkazish
			3. Ishtirokchilarning faoliyatini kuzatish va metodik tavsiyalar berish
D2.02.6- Dars o'tish metodikasi bo'yicha seminar va treninglarni tashkil etish		Ko'nikmalar:	
		Seminar va treninglarni metodik jihatdan samarali tashkil etish	
		Pedagogik tajriba va ilg'or metodlarni yetkazish	
		Ta'lim jarayonini baholash va ishtirokchilarga individual maslahat berish	
		Bilimlar:	
		Ta'lim metodikasi va pedagogik texnologiyalari	
		Seminar va treninglar tashkil etish tamoyillari	
		O'qituvchilarni pedagogik rivojlantirish asoslari	

	D2.03.6- Ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etish	Mehnat harakatlari:	
		1. Ta'lim muassasasining strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda ishtirok etish	
		2. Innovatsion pedagogik va ta'limiy loyihalarni taklif qilish va muhokama qilish	
		3. Strategik rejalarga asoslangan amaliy choralarni ishlab chiqishda yordam berish	
		Ko'nikmalar:	
		Ta'lim muassasasi strategiyasini tahlil qilish va takliflar berish	
		Loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish	
		Pedagogik va tashkiliy qarorlarni muvofiqlashtirish	
		Bilimlar:	
		Ta'lim muassasasi rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tamoyillari	
		Innovatsion va pilot pedagogik loyihalar metodologiyasi	
		Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish usullari va monitoring mexanizmlari	
		Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Pedagogik jamoaning metodik faoliyatini mustaqil rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish
			2. Dars jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini va pedagogik jarayon talablarini hisobga olgan holda qarorlar qabul qilish va o'quv jarayonini takomillashtirish
3. Pedagogik jamoaning dars o'tish sifati va ta'lim jarayonining samaradorligi uchun shaxsiy va professional javobgarlik			
4. Yangi va yosh o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, metodik yordam ko'rsatish va dars amaliyotini nazorat qilish bo'yicha javobgarlik			
Texnik va/yoki texnologik talab	Zamonaviy shaxsiy kompyuter yoki noutbuk (Windows/macOS/Linux, ofis dasturlari bilan); Multimediali proyektor yoki interaktiv doska; Audio va video jihozlar (mikrofon, kamera, kolonkalar) ta'lim jarayonini sifatli olib borish uchun; Printer, skaner va nusxa ko'chirish qurilmalari; Barqaror va yuqori tezlikdagi internet aloqasi; Elektron ta'lim platformalari (LMS – Learning Management System, masofaviy ta'lim tizimlari); Elektron baholash va test tizimlari; Onlayn prezentatsiya va interaktiv kontent yaratish dasturlari; Raqamli o'quv resurslari — elektron darsliklar, animatsiyalar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar; Master-klasslar va ochiq darslar uchun pedagogik metodlar va ilg'or tajribalar; Pilot dars va innovatsion metodlar — eksperimental darslarni tashkil etish va baholash.		

Kasbning nomi:	Bosh o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23203	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:		
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:		
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;</p> <p>o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;</p> <p>ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, ohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;</p> <p>voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;</p> <p>o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;</p> <p>ta'lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi tablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;</p> <p>majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Akademik litsey pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotli o'qituvchi
	6	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mutaxassis o'qituvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Namuna va mualliflik darslarining maqsad, mazmun va metodikasini ishlab chiqish	

E1.6- O'quv mashg'ulotlarini strategik darajada tashkil etish va namunaviy darslar o'tkazish	E1.01.6- Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan namunaviy va mualliflik darslarini ishlab chiqish va o'tkazish	2. Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlarini o'tkazish
		3. O'tkazilgan darslar natijalarini tahlil qilish va metodik xulosalar tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Namuna va mualliflik darslarini loyihalash va metodik jihatdan asoslash
		Innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish
		Dars jarayonini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish
		Bilimlar:
		Ta'lim sifati va dars samaradorligini oshirish metodologiyasi
		Zamonaviy pedagogik va raqamli ta'lim texnologiyalari
	Namuna va mualliflik darslarini ishlab chiqish tamoyillari	
	E1.02.6- O'quv mashg'ulotlari sifati ustidan monitoring va metodik nazoratni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. O'quv mashg'ulotlari sifati bo'yicha monitoring mezonlarini ishlab chiqish
		2. Dars mashg'ulotlarini kuzatish, baholash va metodik tahlil qilish
		3. Monitoring natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Dars sifati monitoringi va metodik nazoratni amalga oshirish
		Tahliliy xulosalar chiqarish va metodik tavsiyalar berish
		Ta'lim jarayonini baholash vositalaridan samarali foydalanish
		Bilimlar:
		Ta'lim sifati monitoringi va baholash mexanizmlari
		Metodik nazorat va pedagogik tahlil usullari
Davlat ta'lim standartlari va ta'lim sifati talablari		
E1.03.6- Ta'lim muassasasi rahbariyati bilan hamkorlikda dars jarayonini takomillashtirish bo'yicha qarorlar ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:	
	1. Dars jarayoni holatini tahlil qilish va muammolarni aniqlash	
	2. Rahbariyat bilan hamkorlikda takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	
	3. Qabul qilingan qarorlarni amaliyotga joriy etishda ishtirok etish	
	Ko'nikmalar:	
	Strategik va pedagogik qarorlar ishlab chiqishda ishtirok etish	
	Tahliliy fikrlash va muammolarni tizimli hal etish	
	Rahbariyat va pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlik qilish	
Bilimlar:		

		Ta'lim muassasasini boshqarish va strategik rejalashtirish asoslari
		Dars jarayonini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari
		Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha milliy va xalqaro yondashuvlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ta'lim muassasasida o'quv mashg'ulotlarini strategik maqsadlar, davlat ta'lim standartlari va rivojlanish ustuvorliklariga mos holda tashkil etish uchun javobgarlik
		2. Namunaviy va mualliflik darslarining metodik sifati, innovatsion mazmuni va o'quv natijalari uchun mas'ullik
		3. Dars jarayonini rivojlantirishga qaratilgan strategik qarorlarning samaradorligi va barqaror natijalari uchun javobgarlik
		4. O'quv mashg'ulotlari sifatini oshirish bo'yicha monitoring, tahlil va metodik nazorat jarayonlarining to'g'ri amalga oshirilishi uchun mas'ullik
E2.6- Ilmiy-metodik, ekspertlik va dars jarayonini rivojlantirish faoliyatini amalga oshirish	E2.01.6- O'quv dasturlari va dars mashg'ulotlarini ekspertizadan o'tkazish	Mehnat harakatlari:
		1. O'quv dasturlari va dars ishlanmalarini davlat ta'lim standartlari asosida tahlil qilish
		2. Dars mashg'ulotlarining mazmuni, metodikasi va baholash mexanizmlarini ekspert baholash
		3. Ekspertiza natijalari bo'yicha xulosa va tavsiyalar tayyorlash
		Ko'nikmalar
		O'quv hujjatlarini metodik va pedagogik jihatdan tahlil qilish
		Ekspert xulosalarini asosli va tizimli shakllantirish
	Ta'lim sifati bo'yicha mezonlardan samarali foydalanish	
	Bilimlar:	
	Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga qo'yiladigan talablar	
	Ta'lim jarayonini ekspert baholash metodologiyasi	
	Dars mashg'ulotlarini loyihalash va baholash tamoyillari	
	E2.02.6- Ilmiy-uslubiy tadqiqotlar asosida dars o'tish metodikasini takomillashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Ilmiy-uslubiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish
2. Tadqiqotlarga asoslangan yangi dars metodikalarini ishlab chiqish		
3. Takomillashtirilgan metodikalarni dars jarayoniga joriy etish		
Ko'nikmalar:		
Ilmiy-uslubiy tadqiqotlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish		
Dars o'tish metodikasini ilmiy asosda yangilash		

		Tadqiqot natijalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish Bilimlar: Pedagogika va ta'lim metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot asoslari Ilg'or milliy va xalqaro pedagogik tajribalar Ta'lim jarayonini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy yondashuvlari
	E2.03.6- Respublika va hududiy darajadagi ta'lim loyihalarida namunaviy darslar va ekspertlik faoliyatini amalga oshirish	Mehnat harakatlari: 1. Respublika va hududiy ta'lim loyihalarini doirasida namunaviy darslar tayyorlash va o'tkazish 2. Ta'lim loyihalarida metodik va ekspertlik baholashini amalga oshirish 3. Loyiha natijalari bo'yicha metodik xulosalar va takliflar ishlab chiqish Ko'nikmalar: Namunaviy darslarni yuqori saviyada tashkil etish va taqdim etish Ta'lim loyihalarida ekspertlik faoliyatini olib borish Loyihaviy faoliyat natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish Bilimlar: Ta'lim loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish tamoyillari Namunaviy darslarni ishlab chiqish va baholash metodikasi Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan milliy va hududiy dasturlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ilmiy-metodik va ekspertlik faoliyatini mustaqil rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish 2. Dars jarayonini rivojlantirish bo'yicha metodik va pedagogik qarorlarni mustaqil qabul qilish 3. Ilg'or milliy va xalqaro tajribalar asosida dars o'tish metodikasini yangilash va takomillashtirish bo'yicha mustaqil faoliyat yuritish 4. Ta'lim loyihalarini doirasida namunaviy darslar o'tkazish va ekspertlik xulosalari berishda mustaqil qaror qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		Zamonaviy shaxsiy kompyuter yoki noutbuk; Multimediali proyektor yoki interaktiv doska; Audio va video jihozlar ta'lim jarayonini sifatli olib borish uchun; Printer, skaner va nusxa ko'chirish qurilmalari; Barqaror va yuqori tezlikdagi internet aloqasi; Elektron baholash va test tizimlari; Onlayn prezentatsiya va interaktiv kontent yaratish dasturlari; Kompetensiyaga asoslangan ta'limni loyihalash va joriy etish texnikasi;

	<p>Andragogika va talaba markazli o'qitish texnikalari; Muammoli ta'lim (Problem-based learning), loyiha asosida ta'lim (PBL); Interfaol metodlar: debat, case-study, simulyatsiya, rolli o'yinlar; Differensial va inkluziv ta'lim texnikalari; Refleksiya va metakognitiv yondashuvlar; Blended learning (aralash ta'lim) va flipped classroom modeli; Masofaviy ta'lim texnologiyalari (Zoom, MS Teams, Google Meet); LMS platformalari: Moodle, Google Classroom, Canvas; Raqamli baholash texnologiyalari (onlayn testlar, e-portfolio); Sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish (adaptive learning).</p>
--	--

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Ta'lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 14-yanvar 2026-yildagi 1-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0043-son xulosa, 03.02.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 29.01.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	28.01.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

(tashkilot nomi)

Vazir

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3 Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchi to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti boshlig'i	Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich
2	Kasbiy ta'lim agentligi ta'lim jarayonlarini tashkil etish boshqarmasi boshlig'i	Saxibov Oybek Kuyliyevich
3	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi	Yuldashev Olimjon Ashurovich
4	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi	Jumoyev Bolibek Ermamatovich
5	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti akademik litseyi direktori	Saidov G'ulom Odinayevich
6	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori	Adizov Bekjon Qo'chchiyevich
7	Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyi direktori	Ganiyev Alisher Kadriyevich
8	Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S. Vosiqova nomidagi akademik litseyi direktori	Pirnazarov Abdurashid Abdulxayevich
9	Toshkent davlat pedagogika universiteti akademik litseyi direktori	Abdalnizozov Xursandbek Davronbekovich
10	Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi direktor o'rinbosari	Rajabov Ulug'bek Hamidovich
11	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi, tarmoq kengashi kotibi	Abdiyev G'ayrat Ergashevich



**TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ KENGASHI**

**KASBIY STANDART
O'RTA MAXSUS TA'LIM TASHKILOTI
PEDAGOGI**